

"Matematikaning inson hayotidagi o'rni" mavzusidagi navbatdagi master-klass mashg'uloti

2020-yil 11-avgust kuni O’zR FA Matematika instituti direktori o'rinbosari, Butun jahon fanlar akademiyasi akademigi, professor O'tkir Roziqovning "Matematikaning inson hayotidagi o'rni" mavzusidagi master-klass mashg'ulotlari bo'lib o'tdi.





Matematika instituti direktori, akademik Shavkat Ayupov master-klass mashg'ulotining kirish qismida matematika ilm-fanining hozirgi kundagi dolzarb yo'nalishlari hamda mamlakatimizda matematika ilm-fanini rivojlatirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdilar.

Master-klass mashg'ulotida professor O'tkir Roziqov maktab o'qituvchilari va yoshlar uchun matematika fanining hayotiy tadbiqlari va ularni o'quvchilarga qanday usullarda tushuntirish kerakligi haqida ma'ruza qildilar. Ma'ruza so'nggida maktab o'qituvchilari bilan savol-javoblar bo'ldi.

"Matematikaning inson hayotidagi o'rni" mavzusidagi navbatdagi master-klass mashg'uloti 2020-yil 18-avgust kuni soat 11:30 da o'tkaziladi.